



O'YIN METODLARINING O'QUVCHILARNING FAOLLIGI VA BILIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Irodaxon Mirzayeva Xamdamovna

Qo'qon universiteti Andijon filiali

O'yin asosidagi ta'larning muvaffaqiyatli tajribalari ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. O'yinlar nafaqat o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, balki ularning faolligini kuchaytiradi va o'rganish jarayonini interaktiv qiladi. Bu tajribalar turli mamlakatlarda o'quvchilarga ta'lim berishning yanada samarali va ijodiy usullarini taqdim etadi. O'yin asosidagi ta'lim metodlarini kengroq joriy qilish, o'quvchilarning bilimlarini yanada mukammallashtirishga yordam beradi.² O'yin metodlarining bilim samaradorligiga ta'siri

O'yinlar o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. O'yin jarayonida o'quvchilar o'zlarini sinovdan o'tkazadilar, bilganlarini qayta ko'rib chiqadilar va amaliyotda qo'llashga harakat qiladilar. Misol uchun, mantiqiy o'yinlar va masalalarni yechish orqali o'quvchilar bilimlarini mustahkamlashadi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradilar va o'rganilgan materiallarni yanada chuqurroq anglaydilar.

O'yinlar o'quvchilarda, shuningdek, mustahkam eslab qolish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'yinlar orqali o'rganilgan mavzularni takrorlashadi, bu esa ular uchun bilimlarni mustahkamlashga va uzoq muddat eslab qolishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar yordamida o'quvchilar o'rganilgan bilimlarni o'zaro o'yin shaklida mustahkamlashadi, bu esa ular uchun ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

3. Faollikning motivatsiyaga ta'siri

O'yinlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. O'yin jarayonida o'quvchilar o'zlarini tanqidiy holatlarda ko'rsata oladilar va yangi bilimlarni o'zlashtirishga qiziqishlarini yanada oshiradilar. Bu esa o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, o'quvchilar biror o'yinni o'ynash orqali o'zlarini bilmagan yangi faktlarni kashf qilishadi, shu bilan birga o'zlariga bo'lgan ishtiyoyini ishonchni ham mustahkamlashadi.

Shuningdek, o'yinlar o'quvchilarning o'z bilimlarini tekshirishga va ulardan foydalananishga imkon yaratadi. O'yinlar orqali o'quvchilar o'zlarining bilish qobiliyatlarini baholashadi va bu ularning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ishtiyoyini kuchaytiradi.

4. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish²¹

²¹ O'yin metodlari ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda ham yordam beradi. Guruqli o'yinlar va rolli o'yinlar o'quvchilarga o'zaro hamkorlik qilish, jamoaviy ishlash va boshqalar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini o'rgatadi.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

5. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish

O‘yin metodlari, shuningdek, o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. O‘quvchilar o‘yin jarayonida yangi g‘oyalar ishlab chiqadilar, qarorlar qabul qilishda ijodkorlik ko‘rsatadilar va yangi vaziyatlarga moslashishga harakat qiladilar. O‘yinlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular o‘yin davomida har xil vaziyatlarni baholashlari va yechimlarni izlashlari kerak bo‘ladi. O‘yin metodlarining o‘quvchilarning faolligi va bilim samaradorligiga ta’siri katta. O‘yinlar nafaqat o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning bilimlarini mustahkamlash, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. O‘yin metodlarini ta’lim jarayoniga qo‘llash o‘quvchilarni samarali o‘rganishga va ta’limni yanada qiziqarli va interaktiv qilishga imkon yaratadi.

“Qarorlar shalarasi” metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirib, ma’lum masalalarini har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Guruh yoki sinf o‘quvchilari ishtirokida qo‘llaniladigan “Qarorlar shalarasi” bir necha o‘n nafar o‘quvchilarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta’lim jarayonida mazkur metodning qo‘llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda no maqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar

MUAMMO 1-G‘OYA+2- G‘OYA+3- G‘OYA QAROR tizimi faoliyat olib borishadi. “Qarorlar shalarasi” metodi quyidagi shartlar asosida qo‘llaniladi:

1. O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mazvuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosaalarni yozish uchun plakatlar tayyorlaydi.

2. O‘qituvchi o‘quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlarga ajratadi. Muammoning hal etilishi, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qarorni qabul qilinish jarayonida guruhlarning har a’zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildiri lgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a’zolari bir to‘xtamga kelib oladilar.

O‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini boshqalar bilan baham ko‘rish, jamoaviy qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar, bu esa ularning ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarini kuchaytiradi.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a'zolari o'z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o'qituvchi rahbarligida barcha o'quvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar.

Muammo yuzasidan bildirilgan xulosa (qaror)lar borasida savollar tug'ilgudek bo'lsa, ularga javoblar qaytarilib beriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, o'qituvchi buning sababini izohlaydi.

"Qarorlar shajarasi" metodining o'ziga xos jihat shundan iboratki, bu bevosita ma'lum loyiha asosida qo'llaniladi. Mazkur loyiha quyidagi ko'rinishga ega:

"Qarorlar shalarasi" metodi					
Umumiy muammo					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi gi	Kamchili	Afzalligi gi	Kamchili	Afzalligi gi	Kamchili

Qaror:

Ushbu o'yin metodlari o'quvchilarni o'zaro hamkorlikka undaydi: Ko'plab o'yin metodlari o'quvchilarni guruhsda ishlashga, bir-birini qo'llab-quvvatlashga majbur qiladi.

XULOSALAR

Yuqorida keltirilgan boblar va paragraflarni tahlil qilib chiqib quyidagi xulosalar tizimlashtirildi.

1. Barchaga moslashtirilgan yondashuv: O'yinlar orqali o'qituvchilar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olib ta'lim beradilar.
2. Samarali bilim olishni ta'minlaydi: O'yin metodlari o'quvchilarning bilimni chuqurroq o'zlashtirishlariga yordam beradi.
3. Innovatsion yondoshuvlarni qo'llash imkonini yaratadi: O'yin metodlari yangi texnologiyalar va pedagogik yondoshuvlarni qo'llashda samarali vosita bo'lishi mumkin.
4. Darslarni ko'proq interaktiv qilish imkonini beradi: O'yinlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va darslarni yanada qiziqarli qiladi.
5. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi vs o'yinlar o'quvchilarga masalalarni hal qilishda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Ushbu metodlar orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zları bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'yektiv baholashi mumkin.

TAKLIFLAR

O'yin metodlarini ta'limda kengroq qo'llash: O'quvchilarning faolligini va motivatsiyasini oshirish uchun o'yinlarni ta'lim jarayonida ko'proq qo'llash lozim.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



1. O‘quvchilarga turli xil o‘yinlar va metodlarni tanlash imkoniyatini berish: O‘quvchilarga o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga mos o‘yin metodlarini tanlash imkoniyatini yaratish.
2. O‘yinlar orqali ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish: Guruhlarda ishslash, muloqot va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlarni tashkil etish.
3. Darslarda o‘yin elementlarini qo‘llashni o‘qituvchilarga o‘rgatish: O‘qituvchilarga o‘yin metodlarini dars jarayonida qanday samarali qo‘llashni ko‘rsatib berish.
4. O‘yinlarni darsning har bir bosqichida qo‘llash: O‘yin metodlarini nafaqat darsning oxirida, balki boshidan o‘rtasiga qadar faoliyatning barcha bosqichlarida qo‘llash.
5. O‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘yinlar yaratish: O‘quvchilarning qiziqishlari va o‘rganish usullariga mos ravishda o‘yinlarni yaratish.

